



Приложение № 8 к правилам казначейского исполнения бюджетов бюджетной системы Республики Узбекистан

ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ*
к договору (контракту) от 15.09.2022 г. № 133-2-41-ОВ/2022

между "POMEGRANATE BUILDING" MChJ и Шофирикон туман Ободонлаштириш бошкармаси на общую сумму 284 126 977

Глава

Казначейский лицевой счёт

110

100022860062587045204110001

(в сумах)

Наименование месяцев 2022 г.	Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации)		Всего
	4233100		
Январь			
Февраль			
Март			
Апрель			
Май			
Июнь			
Июль			
Август			
Сентябрь	284 126 977,00		284 126 977,00
Октябрь			
Ноябрь			
Декабрь			
Всего за год	284 126 977,00		284 126 977,00

Всего 284 126 977 сум

Икки юз саксон тўрт миллион бир юз йигирма олти минг тўқиз юз етмиш етти сўм 00 тийин
сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 85238093 сум или 30,00%*** от общей суммы договора подлежат предоплате в Сентябрь мес. 2022 г.

(*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2-х экземплярах;

(**) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(***) — Месячный _____ % , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до _____ числа текущего месяца.
(Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика



Главный бухгалтер заказчика

Принял работник казначейского подразделения

(подпись)

«___» 20__ г.

(подпись)

Якубов Халим Махмудович

Ф.И.О.

(подпись)

Аъзамов Исок Камолович

Ф.И.О.

(подпись)

Получил работник
заказчика

«___» 20__ г.

(подпись)

P U D R A T S H A R T N O M A S I

15«9»2022 yil.

133-2-41-OB/2022-son

"POMEGRANATE BUILDING" MChJ keyingi o'rnlarda "Pudratchi" deb yuritiluvchi o'zining nizomi ustavi, asosida ish yurituvchi **rahbari D.Ochilov** timsolida bir tomondan va **Shofirkon tuman obodonlantirish boshqarmasi** keyingi o'rnlarda "**Buyurtmachi**" deb yurituvchi, o'zining nizomi asosida ish yurituvchi **rahbari H.Yakubov** timsolida ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. ShARTNOMANING PREDMETI.

1.1.Ushbu shartnoma buyicha "Pudratchi" "Buyurtmachi" ning buyurtmasiga va tuzilgan loyiha smeta hujjatlariga asosan **Shofirkon tuman Dorigar MFY Dorigar qishloq avtomobil yo'lini joriy ta'mirlash ishlarini bajarishni**, "Buyurtmachi" esa "Pudratchi" tomonidan loyiha smeta bo'yicha bajargan ishlarni dalolatnama asosida qabul qilib olishni hamda to'lojni o'z vaqtida amalga oshirishni o'z zimmalariga oladilar.

1.2.Ushbu shartnomaning umumiy summasi **QQS bilan 284 126 977 (Ikki yuz sakson to'rt million bir yuz yigirma olti ming to'qqiz yuz etmish yetti)** so'mni tashkil etadi.

2. ShARTNOMA BO'YICHA KELISHUV NARXLAR.

2.1.»Buyurtmachi» tomonidan taqdim» qilingan hujjatlarga asosan ta'mirlash ishlarining qiymati **QQS bilan 284 126 977 (Ikki yuz sakson to'rt million bir yuz yigirma olti ming to'qqiz yuz etmish yetti)** so'mni tashkil qiladi.

2.2. Ta'mirlash ishlarining boshlanishi «16» sentyabr 2022-yil.

2.3. Ta'mirlash ishlarining tugashi vaqtি «30» noyabr 2022-yil.

3.TA'MIRLASH IShLARINI BOSHЛАSH , BAJARISH VA TUGATISH BO'YICHA ShARTNOMAVIY MUDDATLAR

3.1. Ta'mirlash ishlarini bajarish muddati mazkur shartnomaning 2.3. bandida ko'rsatilgan muddatgacha amalga oshiriladi.

3.2. "Buyurtmachi" tomonidan ta'mirlash ishlarini bajarish davrida «Pudratchi»ga o'zi tomonidan xarid qilingan qurilish materiallarini taqdim qilishi mumkin.

3.3.Ta'mirlashni to'xtab qolganligi uchun sababchi bo'lgan tomon buning oqibatida kelib chiqadigan har qanday kamomad yoki javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

3.4.Ta'mirlashni tugallab foydalanishga topshirish uchun tuzilgan komissiya dalolatnomasi tasdiqlangandan so'ng ta'mirlash ishlari tamom bo'lgan deb hisoblanadi.

4. TO'LOV ShARTI VA TARTIBI

4.1.Ushbu shartnomaning umumiy narxi **QQS bilan 284 126 977 (Ikki yuz sakson to'rt million bir yuz yigirma olti ming to'qqiz yuz etmish yetti)** so'mni tashkil etadi. "Buyurtmachi" ta'mirlash ishlarini boshlash uchun "Pudratchi"ga shartnomalarining **30 %** yoki **85 238 093** so'm miqdorda oldindan to'lov (avans) ni to'laydi va bu oldindan to'lov 2022-yilning shartnomalarining imzolanganidan keyin 5 bank ish kunida amalga oshiriladi. "Buyurtmachi" tomonidan yakuniy **70 %** yoki **198 888 884** so'm to'lov "Pudratchi" ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim qilgandan so'ng 30 kun ichida amalga oshiriladi.

4.2."Buyurtmachi" to'lovnini pul o'tkazish yuli bilan amalga oshiradi.

4.3. "Pudrat" tashkiloti tomonidan shartnomada ko'rsatilgan summadan oshiqcha bajarilgan ishlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlari amalga oshirilmaydi.

5. PUDRATCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

5.1. Shartnomalarining bahosi **QQS bilan 284 126 977 (Ikki yuz sakson to'rt million bir yuz yigirma olti ming to'qqiz yuz etmish yetti)** so'm bo'lgan ta'mirlash ishlarini shartnomaning 2.3 bandida ko'rsatilgan muddatda bajarish va o'z vaqtida sifatli qilib topshirish.

5.2. Pudratchi maxsus ta'mirlash ishlarini bajarish uchun maxsus yollanma pudratchi tashkilotlarni jalb qilish huquqiga ega.

5.3. Buyurtmachini pudrat shartnomasi tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnomalar mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish shart.

5.4. Pudratchi shartnomada nazarda tutilgan mablag' doirasida ishlarni bajaradi va shunga muvofiq bajarilgan ishlar to'g'risida dalolatnomani tuzadi.

5.5. qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirdar bajarilishini ta'minlash; mazkur shartnomalar bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomalar imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;

- qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash; mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

5.6. Pudratchi Buyurtmachidan bajarilgan xizmat uchun xaqni shartnomaning 4.1 bandiga asosan kelishilgan vaqtida va miqdorda to'lanishini talab kilish huquqiga ega.

6. BUYURTMAChINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1 "Buyurtmachi" "Pudratchi"dan ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida hamda belgilangan standartlarga va amaldagi qonunchilikka asosan topshirishini talab qilish huquqiga ega.

6.2 "Buyurtmachi" tasdiqlangan smetasiga muvofiq budgetda nazarda tutilgan mablag' doirasida shartnomalar tuzadi va shartnomalar summasiga muvofiq dalolatnomani "Pudratchi" bilan birgalikda tuzadi.

6.3. ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash.

6.4. Sifatsiz xizmat ko'rsatilganda "Buyurtmachi" xizmatni qabul qilib olishdan voz kechishi va kamchiliklarni bartaraf qilish to'g'ritsida 7 kun ichida pudratchini yozma ravishda xabardor qiladi.

7. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI.

7.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon, ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi

7.2. Buyurtmachi Pudratchiga bajarilgan ishlar haqini o'z vaqtida to'lamaganligi uchun kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, ammo penyaning umumiyligi summasi kechiktirilgan to'lov qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim. Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

7.3. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

7.4. Pudratchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

7.5. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lмагan ishlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

7.6. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

8. KORRUPSIYAGA QARShI KURASHISH ShARTLARI.

8.1 Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni taraflardan biri o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergen shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rlishiga

kafolat beradi.

8.2 Agar shartnoma bo‘yicha bir taraf boshqa tarafning axloqqa to‘g‘ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid keladigan hattiharakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etishga majburlashdan iborat bo‘lgan faktlarga duch kelsa, qonunchilikda belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor qilishi shart.

8.3. Shartnomaning tarafi va u tomonidan jalb qilingan shaxslar (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) tomonidan korrupsiyaga qarshi qo‘srimcha shartlarga rioya etilmaganda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentabr sanasidagi PF-6313-son farmonidan kelib chiqib ikkinchi taraf shartnomani bir taraflama to‘xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni qoplab berishni talab qilishga haqli bo‘ladi

9. FORS-MAJOR HOLATLARI.

9.1 Taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo‘lmagan holatlar (yengib bo‘lmas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki yetarli darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kiradi.

9.2 Vakolatli organ tomonidan berilgan guvohnoma yengib bo‘lmas kuch mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

9.3 O‘z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo‘lmas kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo‘yicha majburiyatlarini bajarishiga ta’siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim. Agar yengib bo‘lmas kuch holatlari uzlusiz 15 kun davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo‘lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnoma yuborish yo‘li bilan bekor qilinishi mumkin.

10. KELISHMOVChILIKLARNI HAL QILISH TARTIBI.

10.1 Ushbu shartnomani tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilish bilan bog‘liq, tomonlar o‘rtasida kelib chiqadigan, shuningdek, yetkazilgan zararni qoplash to‘g‘risidagi nizolar taraflarning o‘zaro kelishuvi yoxud qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sud orqali hal etiladi.

11. ShARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI.

11.1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 122-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldagagi 594-sonli qarorining 6-bandiga asosan budjet tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek buyurtmachilarning Davlat budgeti mablag‘lari hisobiga kapital qurilishga oid shartnomalari majburiy tartibda G‘aznachilikda ro‘yxatga olingan kundan qonuniy kuchga kiradi hamda 2022-yil 31-dekabrgacha amalda bo‘ladi.

11.2. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo‘lib har biri bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi va taraflarga bir nusxadan saqlanadi.

12. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI:

Pudratchi:

**“POMEGRANATE BUILDING”
MChJ**

(Tovar yetkazib beruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchining
nomi)

Manzil:Xo'ja Orif MFY Mustaqillik ko'chasi

Tel/faks: 998 993860040

h/v 20214000705150579001

Bank nomi; Qishloq Qurilish bank ATB

MFO 01037

OKONX 42110

STIR 306743922

Rahbar:

D. Ochilov



Buyurtmachi:

**Shofirkon tuman Obodonlashtirish
Boshqarmasi**

(budgetdan mablag' oluvchi tashkilotning nomi)

Manzil:Shofirkon tuman Mirzokul MFY

Tel/faks 502-33-39

sh/h* 100022860062587045204110001

budgetdan mablag' oluvchi STIRi 201114223

OKONX 90211

G'aznachilik bo'linmasi nomi: Shofirkon

tuman bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi

G'azna h/v: 23402000300100001010

Bankning nomi: Toshkent Markaziy

bankning XKKM MFO 00014

G'aznachilik SITRi 201122919

Rahbar _____ H.Yakubov

Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan.

Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR
Code** ni skanerlang.

	
Imzolovchi F.I.SH.	XALIM YAKUBOV MAXMUDOVICH
Imzolangan sana	15 сен 2022 15:39
Hujjat kodi	VZ7255768200
Hulosa kodi	VX4688850735

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA YURIDIK XULOSA

- 1.Loyihaning turi: Shartnoma.
- 2.Loyihaning nomi. Pudrat shartnoma.

Shofirkon tuman obodonlantirish boshqarmasi va “POMEGRANATE BUILDING” mas’uliyati cheklangan jamiyati o‘rtasida 284 126 977 (Ikki yuz sakson to‘rt million bir yuz yigirma olti ming to‘qqiz yuz etmish yetti) so‘mlik Shofirkon tuman Dorigar MFY Dorigar qishloq avtomobil yo‘lini joriy ta’mirlash ishlarini bajarishni bo‘yicha pudart shartnoma.

- 3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot.

Shofirkon tuman obodonlantirish boshqarmasi tomonidan loyiha markazga 2022-yil 13-sentabr sanasida ishlab chiqilgan, 13-sentabr yuridik xulosa uchun yuborilgan, 2022-yil 13-sentabr sanasida loyiha markazning mas’ul xodimiga biriktirilgan.

Loyiha Shofirkon tuman obodonlantirish boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan ilova hujjatlari asosida ko‘rib chiqildi.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



B.Safarov

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MOLIYA VAZIRLIGI



MINISTRY OF FINANCE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100017, Toshkent sh., Istiqlol ko'chasi, 29-uy
Tel.: (998 71) 239-15-69, 239-12-52, Faks: (998 71) 244-56-43

29, Istiqlol street, Tashkent, 100017
Tel.: (988 71) 239-15-69, 239-12-52, Fax: (998 71) 244-56-43



“06” сентябрь 2022 й № 03/43-01-34/2112

Қорақалпоғистон Республикаси,
Молия вазирлиги, вилоятлар ва
Тошкент шаҳар Молия бош
бошқармалари

Қорақалпоғистон Республикаси,
вилоятлар ва Тошкент шаҳри
бўйича Ғазначилик бошқармалари,
туманлар ва шаҳарлар бўйича
Ғазначилик бўлинмалари

Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 30 декабрдаги ЎРҚ-742-сонли “2022 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида”ги Конуни ижросини таъминлаш мақсадида ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 2 февралдаги “Автомобиль йўллари соҳасида очиқлик стандартларини жорий этиш ва соҳада жамоатчилик назоратини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 49-сонли қарори ижроси юзасидан қуидагиларни маълум қиласиз.

Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 30 декабрдаги ЎРҚ-742-сонли “2022 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида”ги Конунига мувофиқ, 2022 йилда Республика шаҳар/туманлари ҳудудидаги ички йўлларнинг ҳолатини яхшилаш, жорий ва мукаммал таъмирлаш ишлари учун Қорақалпоғистон Республикасининг республика бюджети, вилоятлар ва Тошкент шаҳар маҳаллий бюджети параметрларида жами 290 193,8 млн.сўм пул маблағлари ажратилди.

Шу билан бирга, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 2 февралдаги “Автомобиль йўллари соҳасида очиқлик стандартларини жорий этиш ва соҳада жамоатчилик назоратини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 49-сонли қарори 2-иловасига асосан “Туман (шаҳар)лар маҳаллий бюджетлари параметрларида ҳудудий ички хўжалик йўлларни таъмирлаш учун ажратилган маблағларни жамоатчилик фикри асосида аниқланган ички хўжалик йўлларни таъмирлашга йўналтириш тартиби тўғрисида” Низом тасдиқланди.

Бугунги кун ҳолатига, туман (шаҳар)лар маҳаллий бюджетлари параметрларида ҳудудий ички хўжалик йўлларини таъмирлаш учун ажратилган маблағларнинг ўзлаштирилиши бўйича ҳудудий хокимликлар томонидан тақдим қилинган маълумотларга асосан таҳлил қилинганда ажратилган маблағларнинг

ўзлаштирилиши бўйича бир қатор сусткашликларга йўл қўйилаётганлиги аниқланмоқда. Жумладан:

Ажратилган маблағларга нисбатан бугунги кун ҳолатига молиялаштирилиши Андижон вилоятида – 24 фоиз, Сирдарё вилоятида – 31 фоиз, Тошкент вилоятида – 33 фоиз, Корақалпоғистон Республикасида – 35 фоиз, Қашқадарёда – 39 фоиз, Бухоро вилоятида 41 фоиз, Хоразм вилоятида 43 фоизни ташкил этмоқда (*Маълумотлар илова қилинади*).

Қурилиш меёърлари қоидаларини тартибга солувчи норматив хужжатларга асосан, йўл қурилиш/таъмиглаш ишлари ўзининг соҳавий хусусиятларидан келиб чиқиб, йилнинг иссиқ даврларида амалга оширилиши лозимлиги белгилаб қўйилган.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, юқорида кўрсатилган худудларда ички йўлларни жорий ва мукаммал таъмилаш ишларининг бугунги кунга қадар бошланмаганлиги ва йилнинг ёғингарчилик мавсумига қисқа фурсатлар қолганлиги, ўз навбатида, ушбу худудларда ички йўлларни таъмилаш учун ажратилган бюджет маблағларининг ўз вақтида тўлиқ ўзлаштирилмаслигига ёки таъмилаш ишларининг сифатсиз бажарилиши ҳамда ажратилган маблағлардан самарасиз фойдаланиш ҳолатларига олиб келади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, Республика шаҳар/туман ҳокимликлари тасарруфидаги ички хўжалик йўлларини таъмилаш учун 2022 йил Корақалпоғистон Республикасининг республика бюджети, вилоятлар ва Тошкент шаҳар туман (шаҳар)лар **маҳаллий бюджетлари параметрларида** ажратилган маблағларнинг самарали ўзлаштиришини таъминлаш ҳамда ички йўлларни таъмилаш ишларини йилнинг ёғингарчилик даврига қадар якунлаш мақсадида, амалдаги тартиблар асосида тасдиқланган манзилли дастурларга асосан тўловларни ўз вақтида қонунчиликда белгиланган тартибда молиялаштиришини амалга оширишингизни сўраймиз.

Илова: *1varaқda*.

Вазир ўринбосари



А. Хайдаров